



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI
SAVODXONLIK KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISHDA 4K"
TEXNOLOGIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI**

Nurmatova Nargiza

Farg'ona viloyat pedagogik mahorat markazi

“Maktabgacha, boshlag'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada “4K” modeli (kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muloqot) asosida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarning o'rnini tahlil qilingan.

Kalit so'z: “4K modeli”, kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot, savodxonlik.

Zamonaviy ta'lim tizimida hozirgi zamon maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining faolligi doimo ham yetarli darajada bo'lmayapti. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanib kelinayotgan an'anaviy o'qitish usullari giperaktiv va ilmga chanqoq bolalarni qoniqtirmasdan, ularda faoliyatlardan zerikish hissini uyg'otmoqda. Bu esa bolalarning erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash va darslarga ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishlariga yo'l bermaydi. Shu sababli zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar hamda yangi ta'limiy qarashlar va izlanishlar mavjud muammoni hal qilishda muvaffaqiyatli usul hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayoni muntazam yangilanib, takomillashib bormoqda. O'qitish uslublarining o'zgarishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va bolalar ehtiyojlarining diversifikatsiyasi pedagoglarni yangi va yangi interaktiv metodlarni qidirishga undamoqda.

Interaktiv o'qitish metodlari – bu bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan, ularning bilim olish jarayonida jonli muloqotga kirishishlariga imkon beradigan uslublardir. Ushbu metodlarning ahamiyati nafaqat bolalarga bilim berishda, balki ularning shaxs sifatida shakllanishi, rivojlanishi hamda ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda ham juda muhimdir. Zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarning tayyorgarliklarini oshirish va ularga kelajakda o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatlarga



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

erishishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni berish maqsadida turli pedagogik modellardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda – “4K” modeli, ya'ni tanqidiy fikrlash (critical thinking), hamkorlik (collaboration), kommunikatsiya (communication) va yaratuvchanlik (creativity) modelidir. Ushbu model bolalarning faolligini oshirish, ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish va haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga tayyorlashga qaratilgan.

Ta'lim sifatini oshirish bu ko'proq bilim to'plab, axborotga ega bo'lishgina emas, balki tafakkurni rivojlantirish, katta axborot oqimidan zarurlarini tezda tanlab olish, yo'nalishni aniqlash, vaziyatni baholash, nostandart muammolarni yechish ko'nikma va malakasini shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy mutaxassis bugungi kunda raqobatbardosh ta'lim bozorida o'z o'rnini topishi uchun yangicha yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishi lozim. Ta'lim sifati, eng avvalo, ta'lim jarayonining asosiy bo'g'ini, uning ham ob'yekti, ham sub'yekti sifatida o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga bog'liqdir. Aynan, 4K modeli bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda muhim katalizatorlik vazifasini bajaradi. 4K tushunchasi odatda kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va hissiy sohalardagi kompetensiyalarni ifodalashda qo'llaniladi. 4K hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikdir. K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Bu bolalarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga hamkorlikda ishlash, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. O'zaro samarali muloqot qilish va umumiy maqsadga erishish uchun jamoada ishlash qobiliyatini hosil qiladi. Bu sifat bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta qobiliyatlarda namoyon bo'ladi:

umumiy go'yani yagona maqsad sifatida qabul qilish qobiliyati;
ijtimoiy munosabatni shakllantirish, ya'ni ko'pchilik fikrini qo'llab-qavvatlash, muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o'z harakatlarini boshqalarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish; mustaqillik va tashabbuskorlik.

Kommunikativlik: O'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi. Ushbu kompetensiya orqali bola qo'rqmay har qanday muloqotga kirisha oladi. Munozaralarni boshlash, muloqotning maqsadi va kontekstiga, savol va javob berishga kirishadi. O'z nuqtai nazarini himoya qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Kreativ fikrlash: O'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni izlab topadi, ijodkorlik orqali muammolarni hal qilishning kutilmagan usullariga ega bo'ladi va u quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

qiziquvchanlik – atrof-olamga qiziqish, mustaqil ravishda ko'proq ma'lumot to'plash istagi paydo bo'ladi va savollarga javob topish;

tasavvur – o'ziga xos ko'plab yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

g'oyalarni rivojlantirish – turli pozitsiyalarda g'oyalarni baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, turli sharoitlarga yangicha yondashuv orqali munosabat bildirish qobiliyati shakllanadi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Axborotni tanqidiy baholash, o'z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Tarbiyalanuvchilar muammolarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Raqamli ta'limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati kattadir. Ma'lumotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyati to'g'ri va mantiqiy xulosa chiqarish va oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi. Jamoa bo'lib hamkorlikda ishlaganda tanqidiy fikrlash orqali bolalar ijtimoiy muloqotga kirisha oladilar.

“4K” modeliga asoslangan ta'limda muammoni yechish usullari bolalarning ushbu ko'nikmalarni amaliyotda qo'llashlariga yaqindan yordam beradi. Muammoni yechish usullari ta'lim jarayonida bolalarga muayyan vaziyatlarda muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechim topishga yordam beradigan strategiyalardir. Ushbu usullarni “4K” modeli bilan birlashtirganda, bolalar nafaqat muammolarni yechishni, balki ularni yechish jarayonida o'zlarining hayotiy zarur ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Muammoni yechish jarayonida analitik fikrlash muhim ahamiyatga ega. Bolalar muammo haqida chuqur fikr yuritish orqali turli nuqtayi nazarlarni hisobga olishni ham o'rganadilar. Masalan, savodxonlikni rivojlantirish



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

frontal faoliyatida muammolarni tahlil qilish orqali bolalar savodxonlikni o'rganadilar, ularning sabablari va oqibatlarini muhokama qiladilar. Bu jarayonda analitik fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi, shuningdek, bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati oshadi.

Savodxonlikni rivojlantirishda "4K" texnologiyasida b foydalanish quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

tahlil - muhokama qilinadigan savol va dalillar o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni o'rnatish;

baholash - dalillarning ishonchliligi va aniqligini baholash qobiliyati;

tushuntirish – o'z nuqtai nazarini asoslash;

faraz qilish – ma'lumotlarning yetishmasligini aniqlash va shu asosda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati;

tartibga solish - o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni chiqarish va mulohaza yuritish qobiliyati shakllanadi.

4K kompetentsiyalariga ega bo'lgan tarbiyalanuvchi muammolarni hal qilishda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ladi:

Muloqot: savol beradi va savollarga javob beradi, tushunmagan ma'lumotlariga izox so'raydi, o'z nuqtai nazarini tushuntiradi, ziddiyatli vaziyatlardan qochadi yoki ularga yechim topadi.

Hamkorlik: yordam so'raydi, boshqa fikr va muloxazalarini tinglaydi va taklif beradi, hamkorlikda ishlaydi, boshqalarga ham fikr bildirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash: axborotni tahlil qiladi, faraz va yechimlarni taklif qiladi, bahslashadi va baholaydi.

Ijodkorlik: g'oyalarni taklif qiladi, ularni qadrlaydi, g'ayrioddiy vaziyatda asosiy ko'nikmalarni qo'llaydi, original yechimlarni topadi, topshiriqni bajarandan so'ng ham yangi g'oya va yechimlarni izlashni davom etadi.

Ushbu kompetensiyalar orqali bola topshiriqlarni bajarishda passivlikdan tashabbuskorlik va mustaqillikka o'tadi, buni xulq-atvor ko'rsatkichlari bilan ham baholash va kuzatish mumkin.

Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak? "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotlarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, bolalarda tanqidiy fikrlash



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

qobiliyati hamda muloqot ko'nikmasi savol-topshiriqlar va mashqlar orqali rivojlanadi. Ta'lim muassalarida ushbu usullar bilan ishlash uchun barcha sharoitlar mavjud.

Bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash, bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini saqlash va mutahkamlash, shuningdek, umumta'lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadlari hisoblanadi. Bu maqsadlar negizida bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash vazifasi turadi. Mustaqillikdan keyingi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash masalalariga e'tibor qaratildi. Biroq, bu boradagi ishlarning sifati va samaradorligi davr talabiga javob bermasligi, sohadagi mavjud kamchiliklar va muammolarning o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik darajasining me'yorlarga muvofiq kelmasligi kuzatildi. Bu salbiy holat ta'limning keyingi bosqichlarida bolalarning o'zlashtirishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Konsepsiya mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlari belgilash hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan maktabgacha ta'lim tashkilotda tarbiyaviy ishni maktab yoshdagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan; ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi.

Maktab ta'limiga umumiy tayyorgarlik - maktabgacha ta'lim tashkilotining maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirishi, maktabga o'quv materialini ongli, faol egallash, keng



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi. Bolaning maktabga maxsus ravishda tayyorgarligi maktab o'qishga umumiy, psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika, ona tili, tabiat kabi o'quv fanlarni o'rganish uchun bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalar mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda eng oddiy matematik tasavurlarni tarkib toptirish, nutq o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabga o'qishga maxsus tayyorlashning zarur doirasini ta'minlaydi.

"4K" modeliga asoslangan ta'limda interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi bolalar uchun o'qish jarayonini yanada jozibador qiladi. Interaktiv metodlar – bu bolalar va pedagoglar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlaydigan, muloqotni rag'batlantiradigan va bolalarning faol ishtirokini oshiradigan ta'lim usullaridir. Bu usullar orqali bolalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash, guruhda ishlash va o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Pedagoglar uchun esa ushbu metodlar darslarni qiziqarli va samarali o'tkazish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. O'RQ-637-son. Xalq so'zi. – Toshkent, 2020-yil 24-sentabr. №202 (7704). <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>
2. Asaqarova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish. – Namangan, 2020. – 137 b.
3. Aminova F. O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari. – Toshkent, 2007. – 130 b.
4. Aviwe Sondlo. The Pedagogical Orientations of Pre-Service Science Teachers Towards Instructional Approaches. – USA, Johannesburg, 2021. – p. 318.
5. Mary Kelly Burke. A Qualitative Case Study on the Pedagogical Training of Instructors in Higher Education. – La Jolla, California: July 2021. – p. 84.
6. Pohl S. Longitudinal Multistage Testing. JEM. International Study Center, Lynch School of Education. – Boston College, Chestnut Hill, 2014. – p. 193.